



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 446 sahifa,  
16-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari .....	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari .....	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati .....	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni .....	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi .....	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari .....	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati .....	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) .....	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities .....	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi .....	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari .....	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) .....	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students .....	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish .....	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari .....	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari .....	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari .....	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati .....	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ .....	95
<b>Мансурова Гульмира Рафазловна</b>	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики .....	101
<b>Рауфова Озода</b>	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari .....	105
<b>Choriyeva Dildora Ismat qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	109
<b>Tangriyev Abdulkarim Tovashevich</b>	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
<b>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish .....	120
<b>Kozimova Mehriniso Akbarali qizi</b>	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
<b>O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi</b>	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi .....	129
<b>Sharipov Nodir Botir o'g'li</b>	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
<b>Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir</b>	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari .....	138
<b>Aliyev Samariddin Murotali o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	142
<b>Boymurodova Sadoqat Istam qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
<b>Gadoymurodova Kamola Sunnatullojeva</b>	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri .....	151
<b>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi</b>	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati .....	154
<b>Gulboyev Akbar Tuxtyayevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish .....	158
<b>Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi</b>	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application .....	161
<b>Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich</b>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik .....	166
<b>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</b>	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry .....	169
<b>Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
<b>Mahbuba Yusupova Rustam qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
<b>Nasimova N. Q.</b>	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry .....	182
<b>Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich</b>	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida .....	187
<b>Ochilova Gulnoza Odilovna</b>	

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi .....	191
<a href="#">Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</a>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli .....	196
<a href="#">Salomova Nargiza Sattorovna</a>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<a href="#">Shukurova Nargiza Ikramovna</a>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish .....	205
<a href="#">Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</a>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<a href="#">Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari .....	216
<a href="#">Uralova Nurxon Maxadovna</a>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<a href="#">Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</a>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari .....	223
<a href="#">Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</a>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology .....	226
<a href="#">Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati .....	229
<a href="#">Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</a>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи .....	233
<a href="#">Маматкулов Равшанжон Солижонович</a>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" .....	237
<a href="#">Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</a>	
Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	240
<a href="#">Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi</a>	
Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions .....	248
<a href="#">Gulnoza Aslamovna Azimkulova</a>	
Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish .....	251
<a href="#">Ergasheva Nigora G'ayratovna</a>	
Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education .....	259
<a href="#">Khudoyarova Ziyoda Maratovna</a>	
Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari.....	264
<a href="#">Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi</a>	
Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari.....	269
<a href="#">Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li</a>	
Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi .....	273
<a href="#">Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi</a>	
Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 <sup>th</sup> -Century English and Karakalpak Works).....	279
<a href="#">Najimova Perizad Arslanbay qizi</a>	
Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	283
<a href="#">Shodiyeva Charos Ravshan qizi</a>	
Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari .....	286
<a href="#">Xaytova Farida Kuchkarovna</a>	



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati .....	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari .....	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari .....	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis .....	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish .....	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tuvlovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari .....	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы .....	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком .....	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	357
<i>Gafforova Sarvinoz Asrorovna</i>	
Chap qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari .....	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari .....	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку .....	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде .....	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
<a href="#">Djuxonova Noxida Xayotjonovna</a>	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
<a href="#">Eshankulova Ma'mura Davlatovna</a>	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari .....	388
<a href="#">Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna</a>	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
<a href="#">Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna</a>	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar .....	395
<a href="#">Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li</a>	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli .....	401
<a href="#">Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov</a>	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
<a href="#">Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi</a>	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
<a href="#">Kamola U. Mirzayeva</a>	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari .....	419
<a href="#">Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li</a>	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
<a href="#">Nabiyeva Aziza Komil qizi</a>	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari .....	429
<a href="#">Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi</a>	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi .....	434
<a href="#">Xudaykulova Saida Zakirovna</a>	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
<a href="#">Karimov Dostonjon Karimovich</a>	



# OLIY TA'LIM TIZIMIDA DASTURIY-KONSEPTUAL MODELLASHTIRISHNING EPISTEMOLOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li  
QDU Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Orcid id: 0009-0000-9567-4224

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilingan. Zamonaviy ta'limni raqamlashtirish va transformatsiya qilish sharoitida konseptual modellar bilimlarni yaratish, qayta ishlash hamda boshqarishning muhim vositasi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda oliy ta'lim mazmunini optimallashtirish, ta'lim jarayonlarini tizimli tashkil etish va axborot tizimlarini integratsiyalashning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, dasturiy-konseptual modellashtirishning ta'lim sifatini oshirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va o'quv rejalari hamda ta'lim dasturlarini raqamli transformatsiya qilishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv va innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** epistemologiya, metodologiya, dasturiy-konseptual modellashtirish, oliy ta'lim, tizimli yondashuv, raqamli transformatsiya, axborot tizimlari integratsiyasi.

**Abstract:** This scientific article systematically examines the epistemological and methodological foundations of software-conceptual modeling in higher education. In the context of digitalization and the ongoing transformation of educational processes, conceptual models are considered essential tools for knowledge creation, processing, and management. The study highlights the theoretical and practical aspects of optimizing higher education content, organizing educational processes through a systemic approach, and integrating information systems. Particular attention is paid to the role of software-conceptual modeling in improving educational quality, strengthening interdisciplinary integration, and supporting the digital transformation of curricula and academic programs. The findings provide a significant theoretical and methodological framework for enhancing institutional management and fostering an innovative educational environment in higher education institutions.

**Key words:** epistemology, methodology, software-conceptual modeling, higher education, systemic approach, digital transformation, information systems integration.

**Аннотация:** В данной научной статье системно исследуются эпистемологические и методологические основы программно-концептуального моделирования в системе высшего образования. В условиях цифровизации и трансформации современных образовательных процессов концептуальные модели рассматриваются как важный инструмент создания, обработки и управления знаниями. В работе раскрываются теоретические и практические аспекты оптимизации содержания высшего образования, системной организации образовательного процесса и интеграции информационных систем. Особое внимание уделено роли программно-концептуального моделирования в повышении качества образования, развитии междисциплинарной интеграции и цифровой трансформации учебных планов и образовательных программ. Полученные результаты могут служить важной теоретико-методологической основой для совершенствования управления высшими учебными заведениями и формирования инновационной образовательной среды.

**Ключевые слова:** эпистемология, методология, программно-концептуальное моделирование, высшее образование, системный подход, цифровая трансформация, интеграция информационных систем.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida oliy ta'lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish va ta'lim sifatini fundamental asosda tubdan oshirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning shiddatli axborotlashuvi va bilimlar hajmining geometrik progressiya bo'yicha o'sib borishi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv, o'quv-metodik hamda ilmiy jarayonlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur murakkab tizimli muammolarni bartaraf etishda an'anaviy ta'lim metodlari yetarli samara bermayapti. Natijada ta'lim muhitini dasturiy va konseptual darajada modellashtirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Dasturiy-konsep-

tual modellashtirish ta'lim tizimining statik va dinamik holatlarini raqamli algoritmlar, mantiqiy tuzilmalar hamda falsafiy-epistemologik tamoyillar orqali ifodalash imkonini beradi. Biroq ushbu jarayonning falsafiy-metodologik asosi yetarlicha ochib berilmaganligi sababli amaliyotda ko'plab tizimli xatoliklar hamda integratsiya muammolari kuzatilmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishda shunchaki texnik vositalarni joriy etish emas, balki ta'lim mazmunini dasturiy-konseptual jihatdan qayta shakllantirishning epistemologik mexanizmlarini yaratish zarurati bilan belgilanadi. Epistemologik yondashuv ta'lim tizimidagi axborotlar oqimini tizimli bilimga aylantirish qonuniyatlarini o'rgansa, metodologik asoslar ushbu bilimlarni dasturiy modellar shaklida amaliyotga tatbiq etish yo'llarini belgilaydi. Dasturiy-konseptual modellashtirish ta'lim muassasasining barcha tarkibiy qismlarini – o'quv rejaları, talabalar kompetensiyaları, professor-o'qituvchilar faoliyati va boshqaruv qarorlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning obykti sifatida oliy ta'lim tizimidagi o'quv-boshqaruv jarayonlari va ularni raqamlashtirish strategiyalari olingan. Tadqiqotning predmeti esa ushbu jarayonlarni dasturiy-konseptual modellashtirishning ilmiy-nazariy, epistemologik va metodologik tamoyillari majmuidir. Maqolaning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish sharoitida dasturiy-konseptual modellashtirishning ilmiy platformasini ishlab chiqish hamda uning metodologik modelini taklif etishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun oliy ta'limda bilimlar tizimini modellashtirishning falsafiy jihatlarini tahlil qilindi, dasturiy modellar va an'anaviy pedagogik yondashuvlar qiyoslandi hamda ta'lim sifatini boshqarishning optimal sxemasi ishlab chiqildi. Maqolada taklif etilgan konseptual yondashuv oliy ta'lim tizimini tizimli tahlil qilish, axborotlarning tarqoqligini kamaytirish va boshqaruv qarorlarining mantiqiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarining milliy va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimini modellashtirish va raqamli muhitga moslashtirish muammolari uzoq yillardan buyon dunyo va mamlakatimiz olimlari tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Ta'lim tizimiga tizimli yondashuv va ijtimoiy-pedagogik tizimlarni modellashtirishning fundamental asoslari P. Anoxin, V. Sadovskiy va E. Yudin kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida ta'lim murakkab, ochiq va dinamik tizim sifatida talqin etiladi.

Pedagogik jarayonlarni konseptual darajada modellashtirish va ta'lim mazmunini loyihalash masalalari V. Kraevskiy, I. Lerner hamda mantiqiy-epistemologik jihatdan N. Blauberg tomonidan o'rganilgan. Zamonaviy sharoitda ta'limni raqamlashtirish va dasturiy modellashtirishning texnologik hamda metodologik muammolari xorijlik tadqiqotchilar, jumladan, G. Siemens (konnektivizm nazariyasi asoschisi), M. Spector va J. Bourdeau ishlarida tahlil qilingan. Siemens o'zining konnektivizm nazariyasida raqamli asrda bilimning shakllanishi va tarqalishi tarmoqli hamda dasturiy modellar orqali amalga oshirishini, epistemologiyaning an'anaviy chegaralari kengayganligini isbotlaydi.

O'zbekistonlik olimlardan R. Jo'rayev, A. Maraximov, U. Begimkulov va M. Aripovlar oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish, pedagogik jarayonlarga AKTni integratsiya qilish hamda ta'limni boshqarishning kompyuter modellarini yaratish bo'yicha samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, U. Begimkulov oliy pedagogik ta'lim tizimida axborot muhitini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, A. Maraximov ta'lim tizimida axborot tizimlarining matematik va dasturiy modellarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limni raqamlashtirish bo'yicha tadqiqotlarning aksariyati ko'proq texnik yoki sof pedagogik xarakterga ega. Dasturiy-konseptual modellashtirishning aynan epistemologik (bilimlar tabiatining o'zgarishi, yangi bilish shakllari) va fundamental metodologik muammolari yaxlit tizim sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ushbu maqola mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni ta'lim texnologiyalarini falsafiy-metodologik darajada umumlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy tahlil, modellashtirish va epistemologik rekonstruksiya metodlari qabul qilingan. Tizimli yondashuv oliy ta'lim tizimini bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan elementlar (talaba, professor-o'qituvchi, o'quv rejasi, raqamli platformalar) majmui sifatida o'rganishga imkon beradi. Epistemologik tahlil vositasida ta'lim jarayonida axborotning bilimga aylanish bosqichlari, dasturiy modellar yordamida fanning konseptual apparati qay darajada to'g'ri aks ettirilishi aniqlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida an'anaviy ta'lim modelidan dasturiy-konseptual modelga o'tishning mezonlari va prinsiplari ishlab chiqildi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS, ERP) va ularning konseptual tuzilmalari qiyosiy tahlil qilindi. Quyidagi 1-jadvalda oliy ta'lim tizimini shakllantirishda an'anaviy pedagogik yondashuv hamda dasturiy-konseptual modellashtirish yondashuvining asosiy parametrlari o'rtasidagi farqlar va afzalliklar tizimlashtirilgan.



1-jadval: Ta'lim tizimiga yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari (Parametrlar)	An'anaviy pedagogik yondashuv	Dasturiy-konseptual modellashtirish yondashuvi
<b>Bilimning tabiati va tuzilishi</b>	Chiziqli, statik, matnli ko'rinishda	Tarmoqli, dinamik, gipermatnli va raqamli
<b>Tizim elementlari aloqasi</b>	Kam moslashuvchan, ierarxik	Yuqori dinamik, gorizontal va integratsiyalashgan
<b>Epistemologik asosi</b>	Empirik va reproduktiv bilish	Konstruktiv va produktiv bilim yaratish
<b>Boshqaruv mexanizmi</b>	Subyektiv (insom omiliga tayanadi)	Obyektiv (ma'lumotlarga asoslangan - Data-driven)
<b>Fanlararo integratsiya</b>	Sun'iy va qisman cheklangan	Avtomatlashgan va uzviy integratsiyalashgan


Metodologiyamizning keyingi bosqichi dasturiy-konseptual modellashtirishning bosqichma-bosqich arxitekturasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Bu jarayon quyidagi to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

- Konseptualizatsiya bosqichi** - oliy ta'lim maqsadlari va kompetensiyalarining mantiqiy modelini tuzish.
- Formalizatsiya bosqichi** - mantiqiy modellarni matematik va algoritmik tilga o'tkazish.
- Dasturiy realizatsiya bosqichi** - algoritmlarni muayyan dasturiy muhit (LMS va boshqalar) vositasida kodlashtirish.
- Verifikatsiya va validatsiya bosqichi** - modelning real ta'lim jarayoniga mosligini tekshirish hamda xatoliklarni korreksiya qilish.

Ushbu uslubiy yondashuv oliy ta'lim tizimidagi har qanday jarayonni nafaqat texnik jihatdan avtomatlash-tirish, balki uning mazmuniy-falsafiy mohiyatini saqlab qolgan holda transformatsiya qilish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijasida oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik prinsiplari aniqlandi hamda tizimlashtirildi. Ma'lum bo'ldiki, raqamli ta'lim muhitida bilim uzatish obyektidan faol bilim yaratish subyektiga aylanadi. Tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasasini boshqarish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturiy-konseptual modellashtirishning funksional sxemasi (1-chizma) ishlab chiqildi. Ushbu sxema ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarini qamrab olib, qayta aloqa mexanizmini to'liq ta'minlaydi.



1-chizma: Oliy ta'limda dasturiy-konseptual modellashtirishning funksional sxemasi.

Ushbu sxemaga ko'ra, epistemologik darajadagi maqsadlar metodologik bosqichda konseptual modellar shakliga keltiriladi va dasturiy blok orqali real amaliyotga tatbiq etiladi. Olingan natijalar monitoring qilinib, qayta aloqa mexanizmi yordamida tizim muntazam ravishda takomillashtirib boriladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dasturiy-konseptual modellashtirish oliy ta'lim tizimini mexanik raqamlashtirishdan mazmuniy raqamlashtirishga o'tkazuvchi muhim vosita hisoblanadi. Epistemologik tahlil ta'lim mazmunining aslligini saqlashga xizmat qilsa, metodologik asoslar tizimning barqaror va moslashuvchan faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Mazkur modellashtirish yondashuvi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini 25–30 foizgacha oshirish hamda talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini aniq loyihalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejalarini shakllantirishda fanlararo bog'liqlikning dasturiy-konseptual modellaridan foydalanish va chiziqli bo'lmagan ta'lim traektoriyalarini joriy etish;
2. Ta'lim sifatini boshqarishda "ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv" (Data-Driven Management) tizimiga o'tish hamda qarorlar qabul qilish jarayonlarini modellashtirish;
3. Professor-o'qituvchilar va ta'lim menejerlarining dasturiy-konseptual modellashtirish bo'yicha raqamli-metodologik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Анохин П. К. Узловые вопросы теории функциональной системы. - М.: Наука, 1980. - 197 с.
2. Бегимкулов У. Ш. Олий педагогик таълим тизимида замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. - Тошкент: Фан, 2007. - 182 б.
3. Блауберг И. В., Юдин Э. Г. Становление и сущность системного подхода. - М.: Наука, 1973. - 270 с.
4. Жўраев Р. Ҳ. Таълимда замонавий педагогик ва ахборот технологиялари интеграцияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 2004. - 156 б.
5. Краевский В. В. Методология педагогики: пособие для педагогов-исследователей. - Чебоксары: Chuvash University Press, 2001. - 244 с.
6. Марахимов А. Р. Ахборот-коммуникация технологияларининг олий таълим тизимида интеграциялашуви моделлари. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2012. - 214 б.
7. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. - 2005. - Vol. 2, № 1. - P. 3-10.
8. Spector J. M. Foundations of Educational Technology: Integrative Approaches and Interdisciplinary Perspectives. - New York: Routledge, 2015. - 327 p.
9. Юдин Э. Г. Системный подход и принцип деятельности. - М.: Наука, 1978. - 391 с.
10. Садовский В. Н. Основания общей теории систем. - М.: Наука, 1974. - 279 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.